

---

## Milliy liboslar – qadriyatlarimiz ko‘rki

Qo‘shtepa tumanidagi 2-son politexnikumida "Milliy liboslar – qadriyatlarimiz ko‘rki" mavzusida ma‘naviy-ma‘rifiy tadbir o‘tkazildi.

Yoshlar o‘rtasida milliy liboslarimiz va qadriyatlarimizni targ‘ib etish maqsadida tashkillangan tadbirda xalqimizning ko‘p asrlik o‘tmish madaniyati, urf-odat va an‘analari, didi, estetik qarashlari, shuningdek, tashqi qiyofa va libos borasidagi o‘ziga xos xususiyatlari yana bir bor namoyish etildi.

2025-02-04 16:14:39